

“SADDI ISKANDARIY”DA HUKMDOR OBRAZI

Iroda Mamayunusovna PARDAYEVA

dotsent

Samarqand davlat chet tillari instituti

Samarqand, O‘zbekiston

e-mail: pardayevairoda74@mail.com

Аннотация

Maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni asosida Iskandar obrazi har tomonlama ilmiy tahlil qilingan. Dostonda Iskandar timsolining an’anaviy tarixiy va afsonaviy talqinlardan farqli jihatlari, uning adolatparvar, ilmparvar va xalqparvar hukmdor sifatidagi qiyofasi ochib berilgan. Iskandarning shaxsiyati faqat jahongir sarkarda sifatida emas, balki ijtimoiy adolatni qaror toptiruvchi, ilm-fan homiysi va ma’naviy kamolot sari intiluvchi ideal shaxs sifatida asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar: ideal hukmdor, komil inson, adolat konsepsiyasi, Sharq adabiyoti, falsafiy-didaktik doston, Arastu, badiiy talqin, ilm va hikmat, davlat boshqaruvi.

ОБРАЗ ПРАВИТЕЛЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «САДДИ ИСКАНДАРИ»

Ирода Мамаюнусовна ПАРДАЕВА

доцент

Самаркандский государственный институт

иностранных языков

Самарканд, Узбекистан

e-mail: pardayevairoda74@mail.com

Аннотация

В статье на основе поэмы Алишера Навои «Садди Искандарий» проводится всесторонний научный анализ образа Искандера. В исследовании раскрываются особенности художественной интерпретации данного образа, отличающие его от традиционных исторических и мифологических трактовок, а также освещается его облик как справедливого, просвещённого и народолюбивого правителя. Обосновывается, что в произведении Искандер представлен не только как великий полководец и завоеватель, но и как идеальная личность, стремящаяся к утверждению социальной справедливости, покровительству науки и духовному совершенству.

Ключевые слова: идеальный правитель, совершенный человек, концепция справедливости, восточная литература, философско-дидактическая поэма, Аристотель, художественная интерпретация, наука и мудрость, государственное управление.

Sharq mumtoz adabiyotida hukmdor obrazi har doim muhim g‘oyaviy-estetik kategoriyalardan biri sifatida talqin etilib, u orqali jamiyat, davlat boshqaruvi, adolat va insoniy fazilatlar haqidagi qarashlar badiiy ifoda etilgan.

Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Saddi Iskandariy” dostoni ushbu masalaning eng mukammal badiiy-falsafiy yechimlaridan biri sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur asarda Iskandar Zulqarnayn timsoli nafaqat tarixiy shaxs yoki afsonaviy qahramon sifatida, balki ideal hukmdor, komil inson va adolatparvar rahbar sifatida talqin qilinadi.

Ma’lumki, Iskandar obrazi antik davr tarixchilari asarlaridan boshlab Sharq adabiyotigacha bo’lgan keng adabiy an’ana doirasida shakllanib, turli madaniy muhitlarda u turlicha mazmun kasb etgan. G’arb manbalarida Iskandar, asosan, buyuk sarkarda va jahongir sifatida tasvirlangan bo’lsa, Sharq adabiyotida bu obraz tobora falsafiy lashib, ma’naviy-axloqiy mazmun bilan boyiydi. Nizomiy Ganjaviy va Abdurahmon Jomiy singari mutafakkirlar ijodida Iskandar donishmand hukmdor sifatida talqin qilinsa, Alisher Navoiy ushbu an’anani yangi bosqichga olib chiqib, uni yanada mukammal, ichki ziddiyatlarga ega va hayotiy obraz darajasiga ko’taradi.

“Saddi Iskandariy” dostoni o’zining falsafiy-didaktik yo’nalishi bilan ajralib turadi. Asarda hukmdor shaxsiyati, uning jamiyat oldidagi mas’uliyati, adolat va ilmga munosabati markaziy masala sifatida qo’yiladi. Navoiy Iskandar obrazini yaratishda uning harbiy yurishlaridan ko’ra, ma’naviy kamoloti, ilmga intilishi, ustoz-shogird munosabatlari hamda xalqparvarlik faoliyatiga alohida urg’u beradi. Shu jihatdan, dostonda hukmdorlik mohiyati kuch va zabt etish bilan emas, balki adolat, hikmat va insonparvarlik bilan belgilanadi.

Xususan, Iskandarning tarbiya jarayoni qisqa, ammo mazmunan teran tasvirlanib, uning ustozlari qatorida Arastu va Nakumaxis kabi donishmandlarning tilga olinishi hukmdor shaxsining shakllanishida ilm va hikmat hal qiluvchi omil ekanini ko’rsatadi. Bu jihat Iskandarning keyingi faoliyatida ham yaqqol namoyon bo’ladi: u taxtni shaxsiy istagi bilan emas, balki xalq irodasi asosida qabul qiladi, davlat boshqaruvida esa adolatni ustuvor mezon sifatida belgilaydi. Taxtga o’tirgach, uning ilk ishlari xalq arzini tinglash, zolimlarni jazolash va soliqlarni yengillashtirishdan iborat bo’lishi ham shoir tomonidan ilgari surilgan ideal hukmdor modelining muhim belgilarini ifodalaydi.

Navoiy Iskandar obrazini nafaqat yirik sarkarda yoki dunyo fotihi sifatida, balki ijtimoiy adolat tarafdori, xalqparvar va ilmparvar hukmdor sifatida gavdalantiradi. Shoir uchun Iskandar timsoli insonparvarlik va davlatparvarlik g'oyalari uyg'unlashgan ideal shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu konsepsiya doston davomida izchil ravishda rivojlantirilib, Iskandarning harbiy yurishlari ham oddiy bosqinchilik emas, balki adolatni qaror toptirish, zulmni bartaraf etish va jamiyatda tartib o'rnatishga qaratilgan faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Jumladan, Iskandarning Doro bilan bo'lgan to'qnashuvi tasvirida ikki xil hukmdor modeli qarama-qarshi qo'yiladi: biri – zolim, mag'rur va mulohazasiz shoh, ikkinchisi esa – oqilona siyosat yurituvchi, sabrli va adolatli hukmdor. Natijada, Iskandar nafaqat harbiy kuch, balki ma'naviy ustunlik orqali ham g'alabaga erishuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa Navoiyning hukmdor haqidagi konsepsiyasida kuchdan ko'ra aql, adolat va hikmat ustuvor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Iskandarning har bir yurishi tajovuz emas, balki adolat o'rnatish, xalqni ozodlikka olib chiqish, ilm-ma'rifatni yoyish va insoniy munosabatlarni qaror toptirishdek yuksak g'oyalar bilan izohlanadi. Shoh o'z harbiy yurishlarida diplomatiyaga alohida urg'u beradi: avval elchilar yuborib, davlatlarni ixtiyoriy bo'ysunishga da'vat etadi. Qachonki bu taklif rad etilsa, harbiy kuch ishlatadi. U Farang, Andalus, Misr, Iroq, Yamanning bir qismini, so'ngra Xorazm, Dashti Qipchoq, Saqlab, Rus va Charkasni bosib oladi. Samarqand, Hirot, Roy, Isfahon, Kashmir kabi shaharlarni barpo etadi [2;89].

Iskandarning Kashmirda Mallu shoh bilan to'qnashuvi ayniqsa, qiziqarli: Malluning sehrli to'siqlariga qaramay, Iskandar uni mag'lub etadi. Shoir bu asarda ilm qudratiga, olimlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rniga, ma'rifatning nimalarga qodir ekanligiga bilvosita ishora etadi. Navoiyning Iskandari butun bir shaharni olimlar uchun vaqf qilib beradi.

Xususan, dostonlarda bir o'rinda Navoiyning o'zi ixtirochi kimyogar olim sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning ilmiy fantaziyalari esa rivoyatgina bo'lmay, o'zining real hayotiy asoslariga ega bo'lganligini biz bilamiz.

Fotih Iskandar jahonga mashhur firdavsmonand Samarqandni bino etgach, Kashmir o'lkasi tomon yurish qiladi:

Chu Kashmir haddig'a qo'ydi oyog',
Padid o'ldi bir charxiyvand tog' [6; 239].

Bu tog'ning toshlari haybatidan Oy ko'kimtir tusda ko'rinar edi. U go'yoki falakka qadar taroshlab yasalgandek edi, ikki tomoni shunday yiroq ediki, uni o'tish uchun yo'lga chiqmagan yaxshiroq. Ammo:

Bu yanglig' biyik tog', aningdekki Qof,
Bo'lub charxdin yerga tegru shigof [6; 240].

Shigof – yoriq orasida yo'l bor edi. Bu tog'dan o'tadigan yo'lning kiraverish joyida Kashmir ahli nihoyatda katta temir darvoza yasagan edi. Ammo bu darvozani yashirish uchun uning to'g'risida xarsangtoshlardan dushmanni qaytarish niyatida bir qal'a yasalgan edi. Bu qal'ani ko'rgan kishi vahimaga tushar, uni jodu deb tasavvur qilar edi. Qal'a ichida ikki mingta sehrGAR afsunchi joylashgan edi. Ularning niyati hech kimni bu erga yaqin keltirmaslik edi. Agar to'sattan biror kishi qal'a tomonga qadam qo'ysa, oyog'i sustlashib, harakatdan qolar, o'z jonini halokatda ko'rar edi. Agar ot bu tomonga qarab chopsa, oyoqlarining kuchi yo'qolar edi.

Iskandar navkarlari bu erga kelib hayron bo'ladilar va voqeadan shohni xabardor etadilar. Shoh ustozlari Arastu bilan birgalikda aytilgan gaplarga ishonmay, qal'aga yaqinroq keladi va:

Dedikim: "Bu nayrangi Kashmirdur,
Fusungar ishi makru tazvirdur.

Kerak qilmoq andoq aning chorasi

Ki bo'lg'ay nigun burj ila borasi" [6; 241].

Shoh ehtiyot uchun cherigini qal'adan uzoqroqda tushiradi va o'zi bilan doimo birga yurgan o'n besh hakimga murojaat etib, "Kashmir afsunini daf' etish uchun nima tadbir etmoq lozim?"- deydi.

Hakim – olimlar shohga hech g'am chekmaslikni, ikki kun o'ylashib, uchinchi kun bu afsun yechimini aytishliklarini bayon etadilar.

Dostonning shu o‘rnidan Navoiyning ilmiy fantaziyasi, olimona tadqiqoti boshlanadi. U Iskandar yonidagi olimlar avval yulduzlar ahvolini va ularning tabiatlarini qiyoslab o‘rganganliklarini bayon etadi. So‘ng ular temirchilarning metall eritadigan va havo beradigan asboblarini, ancha metallni hozir qiladilar. Simob, qalay va bronzani aralashtirib, bir o‘q hozirlaydilar. Bu o‘q xuddi falak kabi yumaloq shaklda bo‘lib, ichi ham falakning ichi kabi bo‘sh edi. Ichini porox bilan to‘ldiradilar. Ikki teshigiga fatila (pilik) o‘rnatadilar. Xuddi dushman boshidek o‘qning piligiga o‘t bog‘lab, uni to‘pga joylab, dushman qal’asi tomon otishni niyat qiladilar. O‘q ichidagi pilik havoda uchib borish asnosida yonib, ichida yashirilgan ashyoga ham o‘tadi. Bu tilsimli o‘q yerga qattiq tegib tushgach, pora-pora bo‘lib yo‘q bo‘lib ketadi. Shu onda undan g‘aroyib sado chiqadi, atrofga ajib bir shu‘la, shamol va tutun tarqaladi. Sado sehrni buzadi, shu‘la esa qal’a eshiklarini ochib yuboradi. Tutun sehrgarlar yuzini qop-qora qiladi. Shamoli, ya’ni hidini kim hidlasa, sehr ilmini butunlay unutadi. Hakimlar Iskandarga:

Tilismi nihonni ayon qildilar,

Nihon barcha ramzin bayon qildilar [6;245].

Shundan so‘ng, Iskandar kashmiriylar tilsimiga qarshi yasalgan bu tilsim vositasida sehrli qal’ani zabt etadi va Mallu zulmidan bezor bo‘lgan mamlakatga egalik qiladi.

E’tibor qilinsa, shu birgina parchaning o‘zidayoq Navoiy o‘z davri ilmida ham ancha oldin ketganligi ko‘zga tashlanadi. U badiiy konflikt yaratar ekan, o‘zining chuqur bilimini namoyish etadi. U simobning havoda yo‘q bo‘lib, yer ostiga kirib ketish xususiyatini, qalayning tez eruvchanligini, bronzaning esa biriktiruvchi xossasini bilgani tufayli aynan shu moddalardan metall yasaydi. O‘qning shaklini esa falakdan andoza oladi. Sehr – bu bir maromda ovga qarata yuboriladigan fikrlar to‘lqini. Qattiq sado havodagi har qanday to‘lqinni sindirib yuboradi. “Afan is”, ya’ni badbo‘y hid, zamonaviy tibbiyotda ham ta’kidlanganidek, miya faoliyatini ishdan chiqaradi. Shu bois afsungarlar barcha o‘rgangan ilmlarini butunlay unutadilar. Shamol bilan eshiklarni ochish hodisasiga

esa texnikaviy taraqqiyotga erishgan bugungi kunimizdan ko‘plab misol keltirishimiz mumkin [7; 343].

G‘alaba qozongan Iskandar Malluni avf etib, uning qizi Mehrnozni nikohiga oladi. Bu holatlar Iskandarning kechirimli, insofli va bag‘rikeng shaxs ekanini yana bir bor ko‘rsatadi.

Hindistonga yetib kelgan Iskandarga royi Dehlida qishlashni taklif qiladi, biroq shoh bu taklifni xalq osoyishtaligini o‘ylab rad etadi. Bahorda esa Chin (Xitoy) tomon yurishga jazm qiladi. Harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng yana ittifoq tuzadi va qishda Chinda qoladi. Iskandar to‘y marosimi o‘tkazib, Ravshanak va Mehrnoz bilan turmush quradi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazini yaratishda uni nafaqat jahongir hukmdor, balki xalqparvar, adolatparvar, ilm-fan homiysi va yuksak insoniy fazilatlar timsoli sifatida talqin etadi.

Bahor faslida shoh Chinni xoqoniga topshirib, Hindiston yo‘liga tushadi. U Gujarot orqali dengiz yo‘liga chiqib, Mag‘rib mamlakatlariga yo‘l oladi. Yo‘l davomida odamxo‘r bahaybat chumolilar va vahshiy ko‘rinishdagi yovvoyi odamlarga duch keladi, oltin va kumushdan iborat tog‘lar borligi haqida xabar oladi. Shu o‘rinda yovvoyilar podshohi Ra‘d bilan jang qilinib, bir qancha pahlavonlar yengiladi. Ra‘dni esa Xitoy kanizagi mag‘lub etib, Iskandar uning g‘alabasini ko‘zlab quvonadi. Iskandar oltin-kumush tog‘lariga yetib borish orzusida bo‘lsa-da, vahshiy odamlar uni bu yo‘ldan qaytaradilar. Ular yo‘lning azob-uqubatlari, mudhish ilonlar mavjudligi, hatto unga ko‘zi tushgan insonlarning o‘lishi haqidagi afsonalarni so‘zlab beradilar.

Bu tasvirlar Navoiy ijodida Abu Rayhon Beruniy asarlarida bayon qilingan “dahshatli ilonlar” haqidagi rivoyatlarning aks sadosi sifatida talqin qilinadi. Iskandar vataniga qaytishda esa u “Rusu diyori Farang” orqali o‘tib, “G‘arbu Shimol”dan kiradi va Kirvon o‘lkasi aholisi undan Ya‘juj va Ma‘juj falokatidan qutqarishni so‘raydi. Shoh turli mutaxassislarni jalb etib, ikki tog‘ o‘rtasiga metall eritmasi va toshlardan qattiq to‘siq (sadd) qurdiradi, shu tariqa yovuz maxluqlar

yo‘lini to‘sib qo‘yadi. Runga qaytgach, Iskandar yig‘ilib qolgan ishlarini tugatib, ko‘p mashaqqatli yurishlardan keyin dam oladi.

Biroq shohning osoyishta hayotga o‘rganmagan tabiati uni dengiz va okean sirlari bilan tanishishga undaydi. Olimlarni jalb qilib, uch ming kema qurdiradi va sakkiz yil davomida oziq-ovqat zaxirasini jamg‘aradi. Sayohat oldidan xalqqa murojaat qilib nutq so‘zlaydi. Xalqning Iskandarga bo‘lgan muhabbati juda kuchli bo‘lib, uni ko‘z yosh bilan kuzatadi. Iskandar dengiz va okeanga chiqib, uch ming kemasi va ot-ulovlari bilan safarga kiradi. Suqrot uning hamrohi bo‘lib, dengiz, okean, orollar, dengiz hayvonlari va dengiz yo‘llari haqida ilmiy ma‘lumotlarni berib boradi. Ular yetti dengizni o‘lchab, tadqiq etadilar va Iskandar jahon okeani markazini ko‘rishni niyat qiladi. U qo‘shinining asosiy qismini vatanga qaytarib, kichik qism bilan yo‘lda davom etadi. Okean markaziga yetib, langar tashlab, shisha sandiqda okean ostiga sho‘ng‘iydi va turli ajoyibotlarni ko‘radi. Yuz kundan so‘ng shisha sandiqni arqon yordamida qaytarib oladilar.

Navoiy nazarida, dengiz va okean sayohatlari Iskandarning ruhini soflantirib, uni avliyo va nabiy darajasiga olib chiqadi. Shu bilan birga, bu g‘oya Navoiy tomonidan bevosita emas, balki Nizomiy an‘anasi asosida kiritilgan. Iskandar vataniga qaytadi, ammo sog‘ligi yomonlashgan shoh sadoqatli do‘stlarini atrofga to‘plab, mamlakatni taqsimlab beradi. Ot choptirib yurgan bir paytda, issiqdan holsizlanib, oltin qalqon bilan boshiga soya qilinadi, bu orqali oldindan bashorat qilingan “temir yer va oltin osmon” hodisasi yuz beradi. Iskandar hayotining oxirgi kunlarini anglab, onasiga xat yozadi va o‘zining Aleksandriyaga dafn etilishini, qabristonga olib ketayotganlarida qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishni vasiyat qiladi.

Asar falsafiy-didaktik mazmundan tashkil topgan bo‘lib, shoir bayon qilmoqchi bo‘lgan barcha fikrlar ushbu markaziy obraz orqali ifodalanadi. Dostonning kompozitsiyasi falsafiy-didaktik qism, uni illyustratsiya qiluvchi voqea, keyin Iskandarning savoli va Arastuning javoblari, nihoyat shohning shu asosda amalga oshirgan ishi shaklida qurilgan. Navoiyning o‘zidan avvalgi

shoirlardan farqli jihati shundaki, u Iskandarning shohlik va donishmandlik faoliyatini uyg'unlashtirib ko'rsatadi.

Har bob yakunida shoir so'zlovchi (soqiy yoki mug'anniy) orqali o'ziga murojaat qilib, axloqiy xulosalar beradi. Shu bois "Saddi Iskandariy"ni "Iskandarnoma"lar orasidagi eng xarakterli nasihatnoma deyish mumkin. Nizomiy Iskandar timsolini lashkarboshilik, donishmand-faylasuflik va payg'ambarlik fazilatlari bosqichida tasvirlagan bo'lsa, Navoiyda lashkarboshilik va olim-donishmandlik faoliyati birlashgan holda beriladi. Navoiy qahramonining xarakteri tarbiya va ijtimoiy muhit tomonidan shakllanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ustoz Nakumaxis va do'sti Aristotelning roli katta. Faylasufning maslahati va savol-javoblari Iskandar faoliyatining muhim qismidir. Akademik A.P.Qayumovning ta'kidlashicha, "Iskandar o'z muhiti va sharoitining ta'siri ostida donishmand olim, elparvar inson, odil podshoh va jasur jangchi bo'lib yetishdi" [8;165].

Navoiy asarida Iskandar obrazi Nizomiy va Xusrav Dehlaviy talqinlaridagi qahramonlardan muayyan jihatlari bilan farqlanadi. Avvalgi adabiy an'anada Filipp tomonidan taxtga o'tkazilgan qahramonlar hokimiyatni hech ikkilanmasdan qabul qilgan bo'lsalar, Navoiy talqinidagi Iskandar aksincha, xalq yig'inini chaqirib, hokimiyat masalasini jamoa irodasiga havola etadi. U o'zini hukmdor sifatida emas, balki xalq tanloviga munosib nomzod sifatida ko'rsatib, hokim qanday bo'lishi lozimligi haqida dasturiy nutq so'zlaydi. Iskandar idora qilishda adolatni o'rnatadi, zulm qilgan amaldorlarni jazolaydi, xalqqa "mendan qo'rqmang, tenglaringizdek munosabatda bo'linglar" deydi. Ratsionalizmga moyil Navoiy dostonida Iskandar barcha ishlarni oldindan rejalashtirib bajaradi. Kunduzi mamlakat boshqaruvi bilan band bo'lsa, kechqurun faylasuflar va olimlar bilan ilmiy suhbatlarda ishtirok etadi. Iskandar amaliy natijalar chiqara oladigan va ijtimoiy adolatparvar, insonparvar shaxs sifatida tasvirlanadi.

Iskandarning Hindiston yurishi tasvirida u hind xalqqa mehribon, rahmdil podshoh sifatida ko'rsatiladi. Navoiy hatto Dehli aholisi o'rtasida qo'zg'olon ko'tarilishidan xavotirda bo'lib, roy taklifini rad etuvchi shohni tasvirlaydi. Navoiy

Iskandarning islom va hanafiylik ta'limotlarini tarqatish uchun yer va suv ostini kezishi payg'ambarlik faoliyati emas, balki bilim olishi sifatida tushuntiriladi.

Doston so'ngida Navoiy:

Bilib xalq shohi muzaffar ani,

Hakimu valiyu payambar ani [6; 511],

deya yozadi. Biroq bu yerda Navoiy payg'ambar timsolini ideal rahbar sifatida emas, balki maqsadga muvofiq ijtimoiy rahbar sifatida talqin etadi.

Navoiy shohning rahbarlik sifatlari sifatida ilm-fan va donishmandlikni asos qilib oladi, ilohiy yoki g'ayritabiiy kuchlarga murojaat qilmaydi. Buning o'rniga, yunon olimlari maslahati asosida Iskandar faoliyati yoritiladi. Shu jihatdan, Navoiy asari haqiqiy va zamonaviy davlat boshqaruvi nazariyasi sifatida qimmatli sanaladi.

Y.Bertels fikricha, agar Navoiy Iskandarning payg'ambarligini kuchaytirganida, doston nasihatnomaning ilmiy va ijtimoiy ahamiyatini yo'qotgan bo'lardi [1; 215].

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarida Iskandar timsoli qadimiy sharq va g'arb madaniyatlarida ko'plab shakllangan qahramonlik va afsonaviy obrazlardan farqli o'laroq, insoniy xususiyatlari bilan yorqin gavdalanadi. Navoiyning asosiy maqsadi Iskandarning nafaqat podshoh sifatidagi salohiyatini, balki uning shaxsiy, oilaviy va ichki kechinmalarini ham ochib berishdir. Shu nuqtai nazardan, asarda Iskandarning onasi va ikki xotini – Ravshanak hamda Mehrnoz bilan munosabatlari o'ziga xos tarzda yoritiladi. U onasiga nisbatan o'g'illik burchini ado eta olmagan uchun ich-ichidan pushaymon bo'lib, uning vafoti ortidan azob chekmasligi uchun harakat qiladi. Xotinlariga nisbatan esa u o'rta asr ritseri xususiyatlariga xos nazokatli va ehtiyotkor munosabatda bo'ladi, ularning jamiyatdagi mavqeini inobatga olib o'ziga xos hurmat ko'rsatadi.

Navoiy Iskandarning hayotini faqat ijobiy fazilatlar to'plami sifatida emas, balki insoniy kamchilik va ichki kurashlar bilan to'ldirilgan holda ko'rsatadi. U o'rta asr feodal podshosi sifatida ijobiy faoliyatlar bilan bir qatorda dunyoni egallashga urinishlari uchun tanqidiy nuqtai nazar bildiradi. Masalan, shoir

Iskandarning dunyoni suv osti va ustini egallashga qaratilgan faoliyatini ma'qullamaydi, bu uning iste'dod va kuchini to'g'ri yo'naltira olmaganligini bildiradi.

Iskandarning "biymi jununiy" (biymi – aqldan ozish, junn – g'ayritabiiy holat) timsoli uning hayotining oxirgi damlaridagi ruhiy holatini ifodalaydi. U kasal holda, o'ziga tinchlik topolmay, ot ustida kezib, oxir-oqibat yolg'izlikda, qizigan qum ustida vafot etadi. Bu epizod hayot va o'lim, shon-sharaf va halokat o'rtasidagi murakkab ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Sharq adabiyotida Iskandarning onasiga yozgan maktubi uning insoniy fazilatlarining yorqin ifodasi sifatida talqin qilinadi. Mazkur maktubda Iskandar onasidan ziyofat uyushtirishni iltimos qilib, dasturxondan hech bir insonni chetda qoldirmaslikni so'raydi. Ushbu epizod, aslida, qadimgi yunon rivoyatlaridan, xususan, Demokrit hayoti bilan bog'liq hikoyalardan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik Rim imperatori Yulian qalamiga mansub "Xatlar" ("Epistulae") asarida ham qayd etilgan voqealarning Sharq adabiyoti an'alariga o'tgan bo'lishi ehtimol qilinadi [1;142].

Demokritning hayoti haqidagi bu hikoya shoh Doro va olim Demokrit o'rtasidagi suhbatda ifodalanadi. Bu yerda shoh o'z sevimli rafiqasini tiriltirishni so'raydi, biroq olim unga inson tabiatining achinarli haqiqatlarini tushuntiradi: haqiqiy azob, odamning yaqinlaridan ayrilishidan keladi, bunday insonni topish qiyin. Demokritning bu haqiqatlari Navoiy ijodida Iskandarning onasiga yozilgan maktub orqali ifodalanadi, u yerda insonning dunyodagi yagona garovi yaqinlarining borligi ekanligi ta'kidlanadi.

Bu motiv Sharq adabiyotida qadimiy davrlardan beri mavjud bo'lib, Firdavsiy "Shohnoma"sida ham uchraydi. Nizomiy, Jomiy va boshqa sharq shoirlari Iskandar vafotidan oldingi so'zlarida ana shu insoniy g'amginlikni aks ettirgan.

Bundan tashqari, "Talmud"da uchraydigan Aleksandrning vafotidan oldingi vasiyatiga oid mashhur rivoyat – tobutdan qo'llarini tashqariga chiqarib qo'yish epizodi Sharq adabiyotida keng tarqalgan. Mazkur holat nafaqat tarixiy-afsonaviy

rivoyat sifatida, balki chuqur ramziy mazmun kasb etgan ibratli voqea sifatida talqin qilinadi. Unda dunyoning beqarorligi, inson umrining o'tkinchiligi va shohlik ham, boylik ham abadiy emasligi g'oyasi mujassam etilgan.

Sharq tafakkurida bu epizod ko'pincha islomiy va tasavvufiy qarashlar bilan uyg'unlashgan holda, insonning dunyoga ortiqcha mehr qo'ymasligi, uni faqat vaqtinchalik manzil sifatida ko'rishi kerakligi haqidagi ta'limotni ifodalaydi. Sufi manbalarida mazkur ramz "zohidona hayot", "faniy dunyo" va "baqoyi ilohiy" tushunchalari bilan bog'lanib, hayotning mohiyati moddiy ne'matlarda emas, balki ma'naviy poklik va oxiratga tayyorgarlikda ekanini eslatadi.

Demak, Aleksandrning o'limi arafasida qo'llarini bo'sh holda tobutdan chiqarib qo'yishi – Sharq adabiyotida insonning dunyodan hech narsa olib ketolmasligi, barcha mulk va saltanatlar o'tkinchi ekani, faqat ezgu amal va pok ma'naviyatgina inson bilan boqiy qolishi haqidagi ulkan falsafiy-axloqiy saboq sifatida talqin etiladi.

Navoiy "Hayrat ul abror"da Iskandarning tilidan quyidagicha ifoda topgan:

Qabrg'a chun boshlag'unguzdur yo'lum,
Ha'sh yonidin chiqaring bir qo'lum [5; 255].

Bu so'zlar orqali shoir vafotdan keyingi dunyoda o'z qahramonining qudrati va merosining davomiy emasligini, balki inson hayotining o'tkinchi ekanligini anglatadi. Tobutdan qo'l chiqarish epizodi boshqalarga ibrat bo'lishi, dunyoviy mulk va kuchga havas qilish insonning oxir-oqibatda befoyda ekanligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi Iskandar obrazida an'anaviy ideal qahramonlikdan ko'ra, insoniy va murakkab xarakterga e'tibor beriladi. Navoiy o'z qahramonini nafaqat ijobiy fazilatlar, balki ichki ziddiyatlar, kamchiliklar va insoniy kechinmalar bilan ham tasvirlaydi. Shuningdek, Sharq adabiyotida keng tarqalgan qadimiy motivlar – insonning yaqinlaridan ayrilishidan keladigan azob, o'limga tayyorlik va dunyoviy hayotning o'tkinchiligi Navoiyning bu asarida ham o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy ijodida Iskandar timsoli jahonni zabt etgan, ko‘plab dengizlarda yashiringan “la’l ila gavharlar”ni ham o‘ziga bo‘ysundira olgan buyuk jahongir sifatida emas, balki insoniy va axloqiy jihatlari bilan yorqin ramz sifatida gavdalantiriladi. Navoiy asarlarida Iskandar dunyoda qolgan mulk, boylik va hokimiyatni oxiratda hech qanday foyda keltirmasligini ta’kidlaydi – uni kaftida faqat bir chimdim tuproq kutmoqda. Shunday qilib, shoir dunyoviy hirs va shon-shuhratdan voz kechib, inson uchun haqiqiy qadriyat bo‘lgan yaxshilik va obro‘ orttirishga urg‘u beradi.

Bu g‘oya qadimiy falsafiy an‘analarga hamohang bo‘lib, dunyodagi moddiy narsalar vaqtinchalik va o‘lim oldidan hech qanday ahamiyatga ega emasligini bildiradi. Shu munosabat bilan 1972-yilda chop etilgan Y.A.Kostyuxinning “Aleksandr Makedonskiy adabiyot va folklor an‘anasida” [4; 245] nomli monografiyasi Iskandar mavzusining turli madaniyat va adabiyotlarda qanchalik keng tarqalganligini o‘rganadi. Ammo muallifning fikricha, bu mavzuga doir har bir yo‘nalish alohida ilmiy izlanishga muhtoj bo‘lib, monografiyada faqat rus tilidagi ba’zi asarlar ko‘rib chiqiladi.

Y.A.Kostyuxin, shuningdek, Nizomiy va Navoiy ijodida axloqiy me‘yorlar va haqiqat izlash mavzusiga to‘xtaladi va ta’kidlaydiki, Nizomiy hayotining oxirida boshqalarni axloqiy yetuklikka chorlagan bo‘lsa, Navoiy buni nafaqat boshqalarga, balki o‘ziga ham yo‘naltirgan. Biroq biz bu fikrga to‘liq qo‘shilmaymiz, chunki Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar timsolini o‘zining aniq maqsadlariga muvofiq ravishda yaratgan va buni faqat tasodifiy yoki ichki izlanish sifatida ko‘rish to‘g‘ri emas.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni Sharq adabiyotida Iskandar obrazining shakllanishi va takomiliga yetishi jarayonida tub yangilik bo‘lib, bu obrazni nafaqat sarkarda yoki afsonaviy qahramon, balki komil inson, axloqiy-falsafiy rahbar, ilm-fan homiysi sifatida talqin etgan ilk yirik turkiy manba hisoblanadi. Navoiy bu orqali Iskandar timsolini g‘arbona bosqinchilik paradigmasidan butunlay farqli ravishda ilm, adolat va insonparvarlik asosidagi hukmdorlik idealiga aylantirdi.

Asarning falsafiy jihati shundaki, unda Iskandarning dunyoqarashi, ma'naviy kamolot sari yurishi, ustoz-shogird munosabatlari (Arastu bilan), shaxsiy kechinmalari va hayot falsafasi sof badiiylik bilan uyg'unlashtirilib, Sharq tafakkurining universal qadriyatlarini mujassamlashtiradi. Navoiy uni afsonaviy belgilar (tobut, qo'l, Kashmir tilsimi va boshqalar) vositasida ramziy darajaga olib chiqib, uni ijtimoiy-axloqiy ideal shaxs, faylasuf-hukmdor, donishmand yetakchi sifatida gavdalantiradi.

“Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazining Navoiy ijodidagi talqini – bu Sharq adabiyotida falsafiy-badiiy tafakkur evolyutsiyasining yangi bosqichi bo'lib, adabiy-tarixiy obrazni ma'naviy-axloqiy ideal darajasiga ko'tarishda yangicha konseptual yondashuvni namoyon qiladi. Ushbu asar faqat xamsanavislik an'anasi doirasidagi yutuq emas, balki Sharq tafakkurining komil inson haqidagi yuksak qarashlarini ifodalovchi keng ko'lamli madaniy-falsafiy manba sifatida muhim ilmiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бертельс. Э. Наваи и его современники. – Москва: Наука, 1961. – 215 с.
2. Ҳалимов Н. Алишер Навоий ва жаҳон адабиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 176 б.
3. Julian. Epistulae. – In: Wright, W.C. (transl.). The Works of the Emperor Julian. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1913. – Vol. III (Loeb Classical Library).
4. Костюхин, Е.А. Александ Македонский в литературе и фольклоре. – Москва: Наука, 1983. – 247 с.
5. Навои, Алишер. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Фан, 1991. – 255 б.
6. Навои, Алишер. Садди Искандарий. – Тошкент: Фан, 1993. – 239 б.
7. Навоийшунослик. Дарслик. – Тошкент: ЎзЖТУ, 2024. – 343 б.
8. Қаюмов А. П. Навоий ва Шарқ қаҳрамонлик достони анъаналари. – Тошкент: Фан, 1970.